

# Korxonada xotin-qizlari dam olish kunlarini sport-sog'lomlashtirish o'yinlari bilan o'tkazishdi

// 02.04.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/korxonada-xotin-qizlari-dam-olish-kunlarini-sport-sog-lomlashtirish-o-yinlari-bilan-o-tkazishdi>



"Qizilqum fosforit kompleksi" MChJ xotin-qizlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni sog'lom turmush tarziga o'tishlarini ta'minlash, ayollar o'rtasida uchrayotgan zararli odatlar, asr kasalliklaridan asrash maqsadida yengil atletika sport o'yinlari o'tkazildi.

Unda ayollar

- 100 metrda yugurish;
- arqonda sakrash;
- uzunlikka sakrash kabi shartlarda o'z mahoratlarini sinab ko'rishdi.

Musobaqa natijalariga ko'ra,

- 1-o'rin Matbuot kotibi S.Suyunovaga;
- 2-o'rin Xo'jalik bo'limi ishchisi Gulmira Temirovaga;
- 3-o'rin Qozonxona operatori Elmera Muyidinovalarga nasib etdi.

Korxonada xotin-qizlari uchun tashkil etilgan musobaqa ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi va esda qoldi

taassurotlarga boy bo'ldi. Yakunda g'oliblarga korxonada rahbariyatining esdalik sovg'alar topshirildi.







**"Qizilqum fosforit kompleksi" MChJ Matbuot xizmati**